

Toshkent davlat yuridik universitetini strategik rivojlantirish dasturlari ijrosi yuzasidan ma'lumot

(universitet kengashining 2025-yil 4-iyundagi 18-son hamda 2025-yil 30-dekabrda 10-son bayonnomalari bilan tasdiqlangan)

2025-yil dekabr oyi holatida

2023–2030-yillarga mo'ljallangan Toshkent davlat yuridik universitetini strategik rivojlantirish dasturi (konsepsiyasi)ni amalga oshirish doirasida 2025-yil uchun tasdiqlangan chora-tadbirlar rejasi universitet faoliyatida muhim strategik hujjatlardan biri hisoblanadi. Mazkur reja universitet kengashining 2025-yil 31-yanvardagi majlisi qarori bilan tasdiqlangan bo'lib, u jami 14 ta asosiy band va 40 ta kichik bandlardan iborat.

2025-yil davomida mazkur chora-tadbirlar rejasi ijrosi ustidan doimiy nazorat o'rnatilib, topshiriqlarning bajarilish holati tizimli ravishda monitoring qilindi. Mas'ul ijrochilar tomonidan topshiriqlarning o'z vaqtida va sifatli bajarilishini ta'minlash yuzasidan tegishli chora-tadbirlar amalga oshirildi. Xususan, mazkur masala 2025-yil 4-iyun kuni bo'lib o'tgan universitet kengashi yig'ilishida alohida muhokama qilinib, topshiriqlarning dolzarbligi yana bir bor ta'kidlandi hamda mas'ul ijrochilarga aniq ko'rsatmalar berildi.

O'tkazilgan tahlillar natijasiga ko'ra, 2025-yil yakuniga qadar belgilangan 40 ta kichik banddan 36 tasi o'z vaqtida bajarilganligi aniqlandi. Shu bilan birga, 3 ta topshiriq muddati o'tib ijro etilgan. 1 ta topshiriq, ya'ni majburiy fanlar doirasida ish beruvchi hamkorlar bilan birgalikda amaliy o'quv qo'llanmalar (casebook) tayyorlash vazifasi bo'yicha esa ish beruvchi tashkilotlar bilan kelishuv jarayonining to'liq yakunlanmaganligi sababli, ijro muddati belgilangan tartibda uzaytirilgan va hozirgi kunda ushbu topshiriq ijrosi amaliy bosqichda davom etmoqda.

Ayni paytda universitet tomonidan 2023–2030-yillarga mo'ljallangan strategik rivojlantirish dasturini 2026-yilda amalga oshirishga oid yo'l xaritasi loyihasini ishlab chiqish yuzasidan tashkiliy ishlar olib borilmoqda. Mazkur jarayon strategik maqsad va vazifalarning izchilligini ta'minlash hamda keyingi bosqichlarda samaradorlikni oshirishga xizmat qiladi.

Shu bilan birga, ayrim topshiriqlar ijrosi yuzasidan mas'ul ijrochilarga qo'shimcha eslatmalar berilgach, ularning bajarilishini ta'minlash bo'yicha zarur choralar ko'rilgan. Bu holat ayrim vazifalar ijrosida belgilangan muddatlar va tartiblarga qat'iy rioya etish zarurligini ko'rsatadi.

Mazkur holatlarni inobatga olgan holda, barcha tarkibiy bo'linmalar tomonidan, ayniqsa strategik ahamiyatga ega hujjatlar ijrosida ijro intizomini mustahkamlash, topshiriqlarning o'z vaqtida va sifatli bajarilishini ta'minlashga

qaratilgan ishlarni tizimli ravishda tashkil etish talab etiladi. Bu esa universitet oldiga qo'yilgan ustuvor vazifalarni belgilangan muddatlarda va to'liq amalga oshirish uchun muhim ahamiyat kasb etadi.

Shuningdek, universitet faoliyatida muhim o'rin tutuvchi strategik hujjatlardan biri sifatida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 26-noyabrdagi "O'zbekiston Respublikasida yuridik ta'lim va ilm-fanni yanada isloh qilish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-232-son Farmoni alohida ahamiyat kasb etadi. Mazkur Farmon bilan universitet oldiga yuridik ta'lim va ilm-fanni tubdan takomillashtirish, ta'lim sifatini oshirish, amaliyot bilan integratsiyani kuchaytirish hamda xalqaro standartlar va reytinglar talablariga mos rivojlanishni ta'minlashga qaratilgan dolzarb vazifalar belgilab berilgan.

Farmon ijrosini ta'minlash maqsadida O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligining 2025-yil 3-dekabrdagi 458-um-son buyrug'i hamda universitet rektorining 2025-yil 5-dekabrdagi 267-um-son buyrug'i qabul qilingan. Shuningdek, Farmonning 3-ilovasiga muvofiq ijroni monitoring qilish rejasi ishlab chiqilib, unda universitet uchun 2030-yilgacha bo'lgan aniq maqsadli ko'rsatkichlar belgilangan.

Mazkur maqsadli ko'rsatkichlardan kelib chiqib, Adliya vazirligi Hay'atida tasdiqlanadigan universitet KPI tizimini takomillashtirish bo'yicha tegishli takliflar ishlab chiqilgan va kiritilgan.

2023–2030-yillarga mo'ljallangan Toshkent davlat yuridik universitetining strategik rivojlantirish dasturi (konsepsiyasi)ni 2025-yilda amalga oshirish yuzasidan tasdiqlangan chora-tadbirlar rejasi doirasida universitetda keng ko'lamli islohotlar amalga oshirildi. Mazkur chora-tadbirlar yuridik ta'lim sifatini oshirish, xalqaro standartlarga moslashish, ilm-fanni rivojlantirish hamda zamonaviy texnologiyalarni joriy etishga qaratilgan bo'lib, ularning ijrosi natijasida muhim ijobiy ko'rsatkichlarga erishildi.

Avvalo, universitetni xalqaro darajada tan olish va reytinglarda munosib o'rin egallash borasida sezilarli natijalarga erishildi. Xususan, universitet Times Higher Education xalqaro reytingida Markaziy Osiyodan yagona oliy ta'lim muassasasi sifatida e'tirof etildi. Shuningdek, "World's Universities with Real Impact" reytingining TOP-100 ro'yxatidan joy oldi hamda "Round University Ranking — 2025" natijalariga ko'ra TOP-500 talikka kirib, "Bronza universitetlar ligasi"dan o'rin egalladi. Barqaror rivojlanish maqsadlari (SDG) bo'yicha amalga oshirilgan ishlar alohida platforma orqali jamoatchilikka ochiq e'lon qilindi.

Xalqaro hamkorlikni kengaytirish borasida ham sezilarli yutuqlarga erishildi. Xususan, Polshaning Gdansk universiteti, Buyuk Britaniyaning Liverpool universiteti hamda AQShning Illinois universiteti bilan qo'shma ta'lim dasturlari yo'lga qo'yildi. Shuningdek, Kardiff, Sasseks, London va Roma-Tre universitetlari bilan

hamkorlikni kengaytirish bo'yicha muzokaralar olib borildi. Natijada talabalar uchun ikki diplomli va xalqaro ta'lim imkoniyatlari yaratildi.

Ta'lim sifatini oshirish maqsadida o'quv jarayoniga zamonaviy pedagogik texnologiyalar joriy etildi. Soft skills, mantiqiy fikrlash, tahlil va tadqiqotga yo'naltirilgan metodlar, shuningdek keys-stadi va loyiha asosidagi o'qitish uslublari amaliyotga keng tatbiq etildi. Professor-o'qituvchilar uchun maxsus o'quv kurslari tashkil etilib, yangi pedagogik yondashuvlarni o'zlashtirishga alohida e'tibor qaratildi. Talabalar uchun mentorlik dasturi joriy etilib, ularning bilimlarni samarali o'zlashtirish ko'nikmalari rivojlantirildi. Ta'lim jarayonini modernizatsiya qilish yo'nalishida ham muhim ishlar amalga oshirildi. Jumladan, "Kiber huquq" (Cyber law) yo'nalishini joriy etish bo'yicha ilg'or xorijiy tajribalar o'rganildi va tegishli takliflar ishlab chiqildi. Raqamli sud ekspertiza markazini tashkil etish yuzasidan normativ-huquqiy hujjatlar loyihalari tayyorlandi hamda yangi ta'lim yo'nalishlarini ochish bo'yicha tashabbuslar ilgari surildi.

Ilmiy faoliyatni rivojlantirish va innovatsiyalarni qo'llab-quvvatlash yo'nalishida startap loyihalar tanlovlari tashkil etildi hamda ilmiy natijalarni tijoratlashtirish mexanizmlari ishlab chiqildi. Bu esa universitetda innovatsion muhitni shakllantirishga xizmat qildi.

Boshqaruv tizimini takomillashtirish doirasida akademik mustaqillikni kengaytirish, xalqaro standartlarga mos boshqaruv mexanizmlarini joriy etish bo'yicha ishlar amalga oshirildi. Xususan, mavjud kollegial organlar faoliyati qayta ko'rib chiqilib, yangi kengashlar tashkil etildi hamda ularning vakolatlari kengaytirildi.

Raqamlashtirish va zamonaviy texnologiyalarni joriy etish borasida ham muhim natijalarga erishildi. Sun'iy intellekt asosidagi texnologiyalarni o'quv jarayoniga integratsiya qilish, LegalTech vositalarini joriy etish, raqamli platformalar yaratish bo'yicha ishlar amalga oshirildi. Huquqiy ma'lumotlar bazasini shakllantirish maqsadida elektron platformalar yaratilib, Big Data asosida ishlovchi tizimlar ishlab chiqildi.

Ta'limning amaliy yo'nalishini kuchaytirish maqsadida zamonaviy o'quv adabiyotlari, smart book va casebooklar yaratish bo'yicha ishlar olib borildi. Yuridik klinika faoliyati kengaytirilib, nodavlat notijorat tashkilotlari bilan hamkorlik mustahkamlandi. Masofaviy ta'limni rivojlantirish borasida ham muhim qadamlar qo'yildi. Ikkinchi mutaxassislik sifatida onlayn ta'lim yo'nalishlarini joriy etish bo'yicha takliflar ishlab chiqildi va universitet kengashi tomonidan tasdiqlandi. Elektron ta'lim platformasi xalqaro standartlarga moslashtirildi hamda o'quv kontentlari tizimli ravishda shakllantirildi.

2025-yilda amalga oshirilgan ishlar Toshkent davlat yuridik universitetida zamonaviy, innovatsion va xalqaro standartlarga mos ta'lim tizimini shakllantirishga

xizmat qildi. Universitetning ilmiy, ta'limiy va tashkiliy salohiyati sezilarli darajada oshdi hamda uning milliy va xalqaro maydondagi nufuzi mustahkamlandi.